**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 07.00.07 - Etnografiya, etnologiya va antropologiya ixtisosligi bo‘yicha ta’lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so‘nggi tendensiyalari yuzasidan 2024/2025-o‘quv yili uchun tayyorlangan**

# TAHLILIY MA’LUMOTLAR

**21.12.2024**

07.00.07 – “Etnografiya, etnologiya va antropologiya” (tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilik) ixtisosligi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Tarix va falsafa” kafedrasi qoshida 2023-yilda tashkil etilgan bo‘lib, hozirgi vaqtda 4 ta izlanuvchi ilmiy faoliyat olib bormoqda.

## I. 2024/2025-O‘QUV YILI KESIMIDAGI TAHLIL VA MONITORING NATIJALARI

2024/2025-o‘quv yilida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix va falsafa kafedrasiga etnograf-tadqiqotchilarga bo‘lgan ehtiyoji asosida qabul kvotasi tasdiqlangan.

**Ta’lim va mehnat bozori ehtiyojlariga ko‘ra,** Surxondaryo vohasining o‘ziga xos etnik tarkibi, moddiy va nomoddiy madaniy merosini ilmiy asosda o‘rganish, viloyat o‘lkashunoslik muzeylari, madaniy meros boshqarmalari hamda oliy ta’lim muassasalarida etnologiya va antropologiya fanlaridan dars beruvchi ilmiy darajali pedagog kadrlar yetishmovchiligini qoplash asosiy ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

**Ilmiy-tadqiqotning so‘nggi tendensiyalariga ko‘ra,** Vohaning tarixiy-etnografik xususiyatlarini (xalq o‘yinlari, Surxon-Sherobod vohasi oilaviy qadriyatlari va marosimlari) chuqur o‘rganish bilan bir qatorda, mintaqaviy va transchegaraviy etnomadaniy jarayonlarni (Afg‘onistondagi o‘zbek va tojiklarning etnolokal xususiyatlari misolida) qiyosiy-etnologik tahlil qilish tendensiyasi shakllandi. Izlanuvchilarni tadqiqot mavzulariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, asosan vohaning etnografik xususiyatidan kelib chiqib tanlanganligining guvohi bo‘lamiz.

### 07.00.07 – “Etnografiya, etnologiya va antropologiya” (tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilik) ixtisosligi izlanuvchilarining ilmiy mavzulari ro‘yxati

| № | Qabul yili | F.I.O. | Ta’lim shakli turi | Ilmiy dissertatsiya mavzusi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2023-yil | Normuratov Boir Ravshanovich | Tayanch doktorantura (PhD) | “Surxon vohasi aholisi xalq o‘yinlarining etnografik tahlili” |

CamScanner yordamida skanerlangan

| № | Qabul yili | F.I.O. | Ta'lim shakli turi | Ilmiy dissertatsiya mavzusi |
|---|---|---|---|---|
| 2 | 2024-yil | Bo'riyev Ravshan Rustamovich | Tayanch doktorantura (PhD) | "Surxon-Sherobod vohasi aholisining oilaviy qadriyatlari va marosimlari (XIX asr oxiri XX asr)" |
| 3 | 2024-yil (IV chorak) | Xo'jamurodov Nodirbek Sultonnurodovich | Mustaqil izlanuvchilik (PhD) | "Avg'onistonda o'zbek va tojiklarning etnomadaniy hayotidagi o'zgarishlarda etnolokal xususiyatlari" |

**Izlanuvchilarning ta'limiy ehtiyojlari:** Tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar asosida ilmiy maqolalarni xalqaro bazalarda (Scopus, Web of Science) chop etish, ilmiy uslubiy seminarda muhokama qilish bo'yicha qo'shimcha konsultativ mashg'ulotlar tashkil etildi.

**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i:** **B. Jurayev**

**Tarix va falsafa kafedrasi mudiri:** **D.T.Yaqubova**

CamScanner yordamida skanerlangan